

TURKISTON JADIDCHILIK NAMOYONDALARI

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Ingliz tili 3-fakulteti o'qituvchisi.

Erkinova Sevinch Dilshod qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Ingliz tili 3-fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10019645>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'tgan asrlarda Turkistonda jadidchilik harakatlarining yorqin namoyondalari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy Mun avvarqori Abdurashidxonov kabi jadidlarning faoliyati jabhalari tilga olingan. Ularning jadidchilik maktablari, darslik, gazeta va jurnallari hamda dramaturgiyasi yoritib berilgan. Ma'rifatchilarning hayiti va faoliyatini o'rgangan olimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xalqni ma'rifatga targ'ib etgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Mahmudxo'ja, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, "yangi usul", maorif, gazeta, jurnal, kutubxona, mustaqillik, hujjatli qissa, Munavvarqori Abdurashidxonov.

MANIFESTATIONS OF TURKESTAN MODERNISM

Abstract. In this article, the aspects of the activities of Jadidists such as Mahmudhoja Behbudi, Fitrat, Abdulla Avloni Mun's predecessor Abdurashidkhanov are mentioned in this article. Their martial arts schools, textbooks, newspapers and magazines, and dramaturgy are covered. Information is given about the scientists who studied the Eid and the activities of the enlighteners. It is also highlighted that he promoted the people to enlightenment.

Key words: Turkestan, Mahmudhoja, Behbudi, Abdulla Avloni, Fitrat, "new method", education, newspaper, magazine, library, independence, documentary story, Munavvarqori Abdurashidkhanov.

ПРОЯВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКОГО МОДЕРНИЗМА

Аннотация. В данной статье затронуты аспекты деятельности таких джадидистов, как Махмудходжа Бехбуди, Фитрат, предшественник Абдуллы Авлони Мана Абдурашидханов. Освещаются их школы боевых искусств, учебники, газеты и журналы, а также их драматургия. Приводятся сведения об ученых, изучавших Курбан-байрам, и деятельности просветителей. Также подчеркивается, что он способствовал просвещению народа.

Ключевые слова: Туркестан, Махмудходжа, Бехбуди, Абдулла Авлони, Фитрат, «новый метод», образование, газета, журнал, библиотека, независимость, документальный рассказ, Мунавваркори Абдурашидханов.

Jadidchilik yoki jaddizm (arabcha: jaded-yangi) –19-asr oxiri, 20-asr boshida Turkiston, Kavkaz, Grim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik 19-asrning 90-yillarida O'rta Osiyoda tarqaldi.

Mahmudxo'ja Behbudiylar jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, o'lka jadidlarining yetakchisi. U pedagogika, nashirlik, siyosat, tijorat bilan shug'urlangan. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon kabi shahar va mamlakatlarni ko'rdi va bildi. "Yangi usul" ni turkistonliklar orasida birinchilardan bo'lib qo'lladi. Behbudiylar Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, "jaholat uyiga" aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarni tamomila o'zgartirib yubordi. U jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. U usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dasturi va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qiroli tilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish bilan shug'ullandi.

1905-yilda Behbudiylar tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi Kaptarxona qishlog'i yaqinida edi. Behbudiylarning bu maktabdagi faoliyati haqida o'sha vaqtlarda Samarqand shahrida Morozov tomonidan nashr etilayotgan Samarqand gazetasida Almatov degan muallif tomonidan xabar berilgan.

Behbudiylar bir qancha darsliklar yaratdi. "Usuli savtiya" metodida faoliyat ko'rsata boshlagan maktablar uchun alifbo darsliklarini yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradi. U ushbu usul zaminida Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib alifbo darsligini yaratdi va uni "Risolayi asbobi savod" deb nomladi, asar tojik tilida. Ushbu alifbo jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha bor nashr qilinda va ko'proq Buxoro, Samarqand maktablarida 1920-yillarga qo'llandi.

Behbudiylar boshida shogirdlariga oddiy o'quv-yozuvni o'rgatgan bo'lsa, keyin "Haftiyak" ni o'rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak"ni o'qitish davomida Behbudiylar yangi fikr paydo bo'ladi. Endi u o'z o'quv dasturiga sistema suratda arab tili o'qitishni kiritadi. Shogirdlar soni 40 ta atrofida bo'lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'gil bola edi.

1913-yil 20-avgustdan "Oyna" jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o'zbekcha bo'lib, she'r, turli yo'nalishdagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib brogan. "Oyna" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan.

Behbudiylarning ma'rifat yo'lidagi xizmatlaridan yana biri uning xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etilgan kutubxonasi edi. Behbudiylarning tashabbusi bilan ish boshlagan kutubxona kundan kunga rivoj topib bordi. Kutubxona "Behbudiylar" nomi bilan yuritila boshladi. Chunki

uning moddiy xarajatlari asosan Behbudiy zimmasida bo'lgan. Keyinchalik ushbu kutubxona Vadud Mahmudiyning "Muallim Abdulqodir Shakuriy" nomli hujjatli qissada tilga olingan.

Mustaqillik yillarida, Prizedentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasida ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerakligi haqida alohida ta'kidlab o'tadi. 2020-yil xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamiyat arbobi Behbudiyning 145-yilligi keng nishonlanganligi ushbu ma'rifatparvar insonning ibratli hayoti va ijodiga bag'ishlangan video filmning yaratilishi manaviyatimizning darg'alaridan biri haqida xalqimiz yangi ma'lumotlarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishdi. Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib qildi.

Fitrat 1917-yilgi Fevral voqealaridan so'ng Buxorodagi ahvol murakkablashgach Samarqandga ko'chib borib 1917-yil apreldan 1918-yil martgacha chiqib turgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi. U 1917-yil oktabr oyini "Yurt qayg'usi: deb nomladi. 1915-yildan "Yosh Buxoroliklar" harakatining so'l qanotida boshchilik qildi. Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlarning bir qismi eski tarzda faqat madaniyat va ma'rifat yo'lini tutgan bo'lsa, ularning boshqa bo'lagi Fitrat, Fayzullo Xo'jayev kabi chet mamlakatlarida o'qib kelgan yoshlar omma o'rtasida madaniyat va ma'rifat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashni ham yoqlab chiqdilar. Bir qator darsliklar tuzdi, "Chig'atoy gurungi" nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda unda faol ishtirok etdi. "Chig'atoy gurungi" "panturkizm" g'oyalarni emas, balki o'zbek tili, adabiyoti, tarixi, va san'ati masalalariga ko'proq e'tibor bergan. Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri arab imlosini isloh qilib, o'zbek tilining tovush xususiyatlariga mos keladigan yangi yozuv tizimini yaratish edi. Tashkilotning bu maqsadi ayni o'sha yillarda emas, bir necha yil o'tgach 1921-yilgi Til va imlo qurultoyida amalga oshirildi.

Fitrat Buxoro ilmiy jamiyatini tuzdi, mahaliy aholi va ulamolar hamkorligida turli qo'lyozmalarni to'plashga kirishdi. Jamiyatning "Anjumani tarix" sho'basi tomonidan yozilgan "Buxoro arki tarixi" asarini chop ettirdi. U Buxoro xalq jumhueiyatining Maorif noziri sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Buxoroda yangi usul naktablarini joriy qilish bilan birga musiqa va qishloq xo'jaligi o'quv yurtlarini tashkil qilishga erishdi.

Buxoro Xalq Soveti Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat Buxoroga taklif qilinadi va maorif noziri sifatida ish boshlaydi. Buxoro Xalq Respublikasida ta'lim vaziri va iqtisodiy rivojlanish kengashining rahbari sifatida faoliyat yuritadi.

Fitrat ilg'or demokratik g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik va isyonkorlikda ayblanadi. Chor ma'murlari esa uni mustamlachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura humron bo'lgan sho'rolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, "XALQ DUSHMANI" degan tuhmatlar bilan aybladilar. 1996-yilda Abdurauf Fitratning 110 yilligi keng nishonlandi, "O'zbekiston pochta" tomonidan Fitratga bag'ishlangan pochta markalari chiqarildi.

Abdulla Avloniy – Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili. Avloniy ijodida millatni uyg'otishga va milliy ozodlikka chaqiruvchi she'rlar, teatr sohasidagi faoliyat hamda dramatic asarlar, yangi avlod tarbiyasiga bag'ishlangan pedagogik asarlar, milliy matbuotni oyoqqa turg'izishdagi sa'y-harakatlari yoxud shu matbuot sshifalarida bosilgan publisistik maqolalar- bularning barchasi bizga Abdulla Avloniy shaxsiyatini millat tarqqiyoti yo'lida fidoyilarcha xizmat qilgan ulkan mutafakkir sifatida namoyon etadi.

U 20-asr boshlarida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida faol tanildi. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini berdi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida bolalar uchun yangi usul maktabni ochib ona tili va adabiyodan dars berishni boshladi. Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblari yozib nashr qildirgan.

Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo'lgan darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. Negaki, yangi maktablarning afzalligini shunchaki targ'ib qilish, o'z o'quvchilari misolida ko'rsatish hali kifoya emas edi. Yangi o'quv tizimining yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi.

1909-yilda "Jamiyati xayriya" ochdi va mahaliy xalq bolalarining o'qib bilim olish uchun pul yig'ib maktablarga tarqatdi.

1917-yilda Fevral voqealaridan keyin "Yashasin xalq jumhuriyati" shiori ostida "Turon" gazetasini nashr qildi. Gazeta o'z mslak-maqsadini "Musulmonlar orasida ko'p yillardan beri davom etayotgan zo'rlik, bid'at, va odatlarni bitirmak, kelajakka bo'ladurg'on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq" deb e'lon qildi. Gazetasida siyosiy va ijtimoiy voqealar yoritilgan. Avloniy maktablar uchun xalqni savodxon qilish, o'zbek xotin-qizlarni o'qitish, o'qituvchilar va ziyoli kadrlarni tayyorlash bilan shug'ullandi.

Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblari yozib nashr qildirgan. "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" Avloniy 1934-yil 25-avgustda vafot etdi.

Mustaqillik yillarida Avloniy hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini qayta nashr qilish ishlari jadallashdi. Adiblar xiyobonida adibga yodgorlik o'rnatildi. Kino san'ati ijodkorlari "Avloniy" badiiy filmini suratga olib, xalqimizga namoyon qilishdi. Avloniy yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda vujudga kelgan jadidchilikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarda innovatsion g'oyalarni joriy qilish bo'lgan. U davrda jadidlar xalqning yashash tarzini o'zgartirishni, ularning ma'naviyat ongini rivojlantirishni asosiy asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar mavhum xalqni ozodlik sari kurashga chorlagan.

REFERENCES

1. S. Ayniy Eski maktab –Toshkent: G'afur G'ulom. 1988-yil
2. 9-sinf O'zbekiston tarixi
3. Tog'ayev va boshqalar. Jadidchilik va uning mohiyatini o'rganish. "Xalq ta'limi", 1993
4. Sirojiddin Ahmad. Munavvarqori. Esse. "Sharq yulduzi" jurnali, 1992, 5-son.

MODERN SCIENCE
& RESEARCH